
HAMJIHATLIGIMIZ TIMSOLI

Mamlakatimizda Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan hashar bo'lib o'tmoqda

"Obod yurt" shiori ostida o'tkazilayotgan xayriya hashari tumanimizda uyushqoqlik bilan olib borilmoqda. Ikki kun davomida tumanimizning barcha hududlarida, mahallalarda ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari yanada avj oladi.

Bugun erta tongdanoq tumanimizning har bir hududida umumxalq xayriya hashari ko'tarinki ruhda boshlandi. Mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli uylar va binolar, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar va qabristonlar, ariqlar, ko'cha va yo'laklarni hamda bolalar maydonchalari tartibga keltirildi. Daraxtlarni oqlash va butash, ko'chalarda, maydonchalarda daraxt va gul ko'chatlari o'tqazish, yo'l va yo'laklarni tartibga keltirish, ariq va zovurlarni tozalash, barcha joyni saranjom-sarishta holatga keltirish bilan bog'liq ishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar, pensionerlar va nogironlar, yolg'iz qariyalar, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashildi va ularining holidan xabar olishga oid ishlar ko'lami kengaydi.

Tumanimizdagi hashar qatnashchilari zarur texnika vositalar va anjomlar bilan ta'minlandi. Joylarda obodonlashtirish ishlari o'tkazilishi jarayonida to'plangan chiqindilarni mutasaddi idoralar tomonidan alohida belgilangan joylarga olib chiqilishi ta'minlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, umumxalq xayriya hashari ahilligimiz, hamjihatligimizning amaldagi yana bir namunasidir.



2020-03-14 14:28:27